



YOSH KITOBXON

Joriy yil 9-aprel kuni "Yosh kitobxon" tanlovining respublika bosqichi g'oliblari aniqlandi. Unga ko'ra, 10-14 yoshlilar o'rtasida 1-o'ringa Farg'ona viloyatidan Muhammadfozil Ismoilov munosib topildi. 15-19 yoshlilar orasida Toshkent shahridan Maftuna Umarova va 20-30 yoshli ishtirokchilar orasida andijonlik Fotima Mamtaliyeva 1-o'rinni qo'lga kiritdi. G'oliblarga "Spark" avtomashinasi, 2- va 3-o'rin sohiblariga mos ravishda 30 million hamda 15 million so'mdan pul mukofoti topshirildi.

Bugungi shiddatli zamon bilagi emas, bilimi zo'rnik. Buni hayotning o'zi isbot etib turibdi. Demak, kelgusi avlodning kelajagi bevosita kitobga munosabati bilan bog'liq. Undan ham quvonchlisi yosh kitobxonlarimiz safi kengayib, ziyakligi ortib borayotganida. Buni 300 ming kitobxon ishtirok etgan bu yilgi "Yosh kitobxon" tanlovi yana bir bor isbotladi.



«Muhabbat bahori»

Hamid Olimjon va Zulfiyaxonim muhabbatining jonli talqini

So'nggi yillarda o'zbek kinematografi tarixiy janrdagi filmlari suratga olayotgani quvonarli hol. Negaki, bugungi avlod ajdodlarimizni faqat yozma manbalardan emas, balki badiiy va hujjatli filmlar orqali ularning surati va siyrati-yu

ichki dunyosi hamda ruhiyatini, yashagan davrining butun tala-to'plari bilan anglashi o'zligini tanishida muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda "O'zbekkino" Milliy agentligi tomonidan suratga olinib, tomoshabinlar hukmiga havola

etilgan "Elparvar", "Imom Ter-miziy", "Qo'qon shamoli", "Avloniy", "Ilhaq" kabi kartinalarni xalqimiz iliq kutib olgani ham bejiz emas.

Bu ro'yxatga "Muhabbat bahori" badiiy filmi ham qo'shilish arafasida turibdi. Kartinada XX asr o'zbek adabiyotining ikki buyuk namoyondasi – Hamid Olimjon hamda Zulfiyaxonim va ularning sof muhabbati, zalvori va baxtli hayot yo'llari, ijodi, shuningdek, ayriliq, vafu, sadoqat kabi tuyg'ular tarannum etilgan. Film va uning yaratilish tarixi, u haqidagi taassurotlarni bilish maqsadida film bosh rejissyori **Ibrohim RASULOV** va aktyorlar fikri bilan qiziqdik.

Davomi 4-sahifada.


Yurtimizda aholini COVID-19 infeksiyasiga qarshi ommaviy emlash jarayoni davom etmoqda. JSSTning tavsiyasiga ko'ra va dunyodagi boshqa davlatlar tajribasiga asoslangan holda, kasallikni yuqtirib olish xavfi yuqori bo'lgan aholi vakillari — 65 yoshdan katta bo'lganlar, tibbiyot xodimlari, surunkali kasalliklar bilan dispanser nazoratida turuvchilar ommaviy emlashda qatnashmoqda.

KORONAVIRUSGA QARSHI EMLANGANLAR 200 MINGDAN OSHDI

Vaksina qabul qilishga kelgan fuqarolarni tibbiyot xodimlari avval to'liq tibbiy tekshiruvdan o'tkazaypti. Emlangandan so'ng bemor amal qilishi zarur bo'lgan tavsiya va maslahatlar berilmoqda. Shuningdek, poliklinikaga kelish imkoniyati bo'lmagan bemorlar uchun maxsus mobil tibbiy yordam xizmati ham tashkil etilgan. Ular fuqarolarning uyiga borib vaksinatsiya qilmoqda. Joriy yilning 12-aprel holatiga ko'ra mamlakatimiz bo'ylab koronavirus infeksiyasiga qarshi emlangan fuqarolar soni 216 087 nafarga yetdi.

Eslatib o'tamiz, aprel oyida Toshkent va Nukus shahri hamda viloyatlar markazlaridagi 219 ta emlash punktlarida 142,3 ming fuqaroni emlash rejalashtirilgan. Shu maqsadda 3 138 ta emlash punkti va 862 ta harakatdagi tibbiy brigada faoliyati yo'lga qo'yilgan. Emlash ishlariga 4 ming nafardan ziyod shifokor va 11 ming nafardan ortiq o'rta tibbiyot xodimi jalb qilingan.

Sanjar ESHMURODOV,
jurnalist





MUVAFFAQIYAT FORMULASI

O'zbekiston yoshlari yurtimizning kelajagi, mustahkam tayanchi. Bu tayanchning asosini esa Diyorbek Tojiyev singari faol yoshlar tashkil etadi. Sardorlar orasida peshqadamlik qilayotgan Diyorbekning faolligi "Kamalak bilimdonlari", "Mening ijod mahsulim", "Yil sardori", "A'lo ta'til", "Leaders Camp" loyihalari hamda ko'plab o'quv seminarlaridagi ishtiroki orqali oshib bordi.

mehnatning qadriga yetish sari yetakladi hamda ota-onalar alqoviga sazovor bo'ldi. Uning hali maktab o'quvchisi bo'lishiga qaramay, maktab yetakchilariga yoshlar bilan ishlash ko'nik-malari bo'yicha o'quv seminarlar tashkil etayotgani tahsinga loyiq. O'quv seminarlari Jizzax viloyatining yettita tumanida o'tkazildi.

2019-yili Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi va xalq ta'limi bo'limi tomonidan tashkil etilgan "A'lo ta'til" loyihasida faol ishtirok etib, diplomni qo'lga kiritgach, tengdoshlarining ham ta'limi maroqli o'tkazishga kirishdi va o'sha yili "Zomin" bolalar oromgohining "Eng namunali oromgoh yetakchisi", 2020-yilda "Yilning eng yaxshi oromgoh yetakchisi" nominatsiyalari g'olibligini qo'lga kiritdi.

Sardor o'z nomi bilan yo'lboshlovchi, yetakchi sanaladi. Diyorbek o'zining "Yakshanbadan yakshanbagacha" teleloyihasi orqali o'quvchi-yoshlarni kasb-hunar o'rganish,

ko'nik-malari bo'yicha o'quv seminarlar tashkil etayotgani tahsinga loyiq. O'quv seminarlari Jizzax viloyatining yettita tumanida o'tkazildi.

SENING TENGDOISHING

Joriy yilda "Zomin leaders-2021" sardorlar forumini tashkillashtirishda ko'rsatgan amaliy yordami uchun tashakkurnoma bilan taqdirlandi.

Sardorlik faoliyatidan tashqari yosh suxandon sifatida Jizzax viloyat telera-diokompaniyasida "Bolaligim-podsholigim" radioeshittirishini olib borgan.

Tinib-tinchimagan sardor karantin davrida tengdoshlari uchun "Uydagi sardor", "Biz bir oilamiz", "Baxtli bolalik" kabi onlayn loyihalarni amalga oshirib, olqishga sazovor bo'ldi.

2020-yilda I Xalqaro bolalar onlayn konferensiyasida jo'jali takliflari bilan ishtirok etib, sertifikatni qo'lga kiritgan Diyorbek singari yoshlarning yurtimiz kelajagi uchun qo'shayotgan hisssasi katta. Chunki uning maqsadi aniq, ko'zlagan marrasi bor.

Yoshlar ishlari agentligi rahbari Alisher Sa'dullayevning "Maqsad + mas'uliyat + mehnat = MUVAFFAQIYAT" formulasining amaldagi natijasini ham aynan Diyorbek Tojiyev misolida ko'rishimiz mumkin.

Komila HAMROYEVA,
O'zMU talabasi

MANSABDOR SHAXSLARning ko'pchiligi ma'muriy qonunchilikni YAXSHI BILMAYDI

Bu esa qonun bilan emas, balki qonunosti hujjatlari bilan ishlash amaliyoti shakllanishiga olib kelgan. Adliya vazirligi mutaxassislari "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonun ijrosini o'rganish jarayonida aniqlangan shu kabi kamchiliklar tufayli qonunning yangi tahrirdagisini ishlab chiqish zarurati borligini aniqladi.

Har bir shaxs kundalik hayotda turli davlat organlari va tashkilotlari bilan u yoki bu darajada munosabatga kirishadi. Bu jarayonda byurokratik tartib-taomillarning oldini olish, fuqarolarni ortiqcha ovoragar-chiliklardan xalos qilish, eng asosiysi, fuqarolarning davlat va davlat organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash maqsadida 2018-yilda "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonun qabul qilingan edi.

Qonun ma'muriy organlar bilan munosabatlarda qonun ustuvorligi, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan.

Eng muhimi, hujjatda masalani hal etish jarayonida yuzaga keladigan, qonun hujjatlarining bartaraf etib bo'lmaydigan barcha qarama-qarshiliklari va noaniqliklari manfaatdor shaxslar o'rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo'lmagan taqdirda, bu manfaatdor shaxslar foydasiga hal etilishi kabi xalqchil nornalar belgilangan.

Lekin har qanday qonun hujjatining ijrosi amalda ta'minlanmaguncha u qog'ozda qolaveradi. Qonunlarni ijro qilish, ularning xalq va jamiyat

hayotiga kirib borishi uchun esa, eng avvalo, davlat organlari mas'ul.

Shu sababli qonun qabul qilingandan so'ng uni amaliyotga tatbiq qilish holati tashkilotlarga borgan holda, ayrim idora va tashkilotlarda so'rov yo'li bilan o'rganildi. Natijada qonun ijrosini tashkil qilish bilan bog'liq tizimli muammo va kamchiliklar mavjudligi aniqlandi. Xususan, davlat organlarida ishlovchi mansabdor shaxslarning ushbu qonun talablarini tushunib yetmagani, ayrimlari uning talabidan xabardor emasligi ma'lum bo'ldi.

Yana bir muammo, qonunosti hujjatlarining ushbu qonunga muvofiqlashtirilmaganligi natijasida vazirlik va idoralarda ushbu qonun bilan emas, balki sohasiy qonunosti hujjatlari bilan ishlash amaliyoti shakllanganidir.

O'tkazilgan o'rganish va tahlillar ma'muriy tartib-taomillar sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi.

Shu maqsadda Adliya vazirligi tomonidan parlament a'zolari hamda yetuk huquqshunos olimlar bilan hamkorlikda "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi

qonunning yangi tahrirdagi loyihasi ishlab chiqildi. Loyiha keng jamoatchilik muhokamasidan o'tkazildi.

Qonun loyihasi fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish, davlat boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi, shaffofligini ta'minlash, davlat organlarining hisobdorligini oshirish, ma'muriy hujjatni bekor qilish asoslarini aniqlashtirish bo'yicha nornalar bilan boyitildi.

Shu maqsadda qonun tatbiq etiladigan sohalar kengaytirildi hamda unda qo'llaniladigan asosiy tushunchalarga jismoniy va yuridik shaxslarni huquqiy himoyalashni kuchaytirish bo'yicha qo'shimchalar kiritildi.

Loyihada normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish, davlat xizmatini o'tash, referendum va saylovlar o'tkazish, mudofaa, jamoat xavfsizligi va huquq-tartibot sohasi, shuningdek, tezkor-qidiruv faoliyati, surishtiruv, dastlabki tergov, jinoyit majburlov choralarini qo'llash bilan bog'liq bo'lgan boshqa faoliyat, sud ishini yuritish, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish sohasida yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan ushbu qonun tatbiq etilmasligi belgilanmoqda.

Qolgan barcha ma'muriy tartib-taomillar sohasida ushbu qonun asosiy hujjat

vazifasini bajaradi. Boshqa qonunosti hujjatlari bilan belgilangan ma'muriy tartib-taomillar ushbu qonunga muvofiq bo'lishi shart.

Qonun loyihasida ma'muriy tartib-taomillarni amalga oshirish qonuniylik, mutanosiblik, ishonchlilik, tinglanish imkoniyatining mavjudligi, ochiqlik, shaffoflik va tushunarlilik, manfaatdor shaxslar huquqlarining ustunligi, byurokratik rasmiyatchilikka yo'l qo'yilmassligi, mazmunan qamrab olish, o'z boshimchalik va huquqning suiiste'mol qilinishini taqiqlash, huquqini qo'llash rad etilishiga yo'l qo'yimaslik, ma'muriy ish yuritishning "bir darcha" orqali amalga oshirilishi, teng huquqlilik, ishonchning himoya qilinishi, ma'muriy ixtiyoriylikning (diskretion vakolatning) qonuniyligi, tekshirish kabi asosiy prinsiplar asosida amalga oshirilishi belgilanmoqda.

Bunda, o'z boshimchalikni, huquqning suiiste'mol qilinishini taqiqlash, huquqini qo'llash rad etilishiga yo'l qo'yimaslik kabi prinsiplar bilan mustahkamlandi. Mazkur prinsiplar ma'muriy organlarga o'z vakolatiga kirmaydigan masalalar bo'yicha ma'muriy hujjat qabul qilishning oldini oladi. Bunday holatlarga yo'l qo'yilganda sud tomonidan mazkur noqonuniy hujjatning bekor qilinishiga huquqiy asos yaratiladi.

Hozirda ma'muriy tartib-taomillar bilan bog'liq ariza

va shikoyatlarni qabul qilish va ko'rib chiqish O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuniga asosan amalga oshirib kelinmoqda.

Bu noto'g'ri amaliyot hisoblanadi. Shu sababli qonun loyihasida ma'muriy tartib-taomillar bilan bog'liq ariza va shikoyatlarni qabul qilish va ko'rib chiqish "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunga muvofiq amalga oshirilishi lozimligi aniq belgilanmoqda.

Amaldagi qonunda ma'muriy hujjat yozma shaklda qabul qilinishi belgilangan. Lekin amaliyotda ma'muriy hujjatlar nafaqat yozma, balki elektron va og'zaki shaklda ham qabul qilinadi.

Qonun loyihasida ma'muriy hujjatni qabul qilish yozma, elektron yoki og'zaki shaklda, shuningdek, belgilar, imo-ishoralar orqali, shu jumladan, avtomatik vositalar yordamida qabul qilinishi mumkinligi belgilandi.

Qonunning bu tarzda takomillashtirilayotgani ma'muriy sohada o'ziga xos burilish yasaydi. Fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari bir xilda ta'minlanishiga zamin yaratiladi.

Bunyod AZIZOV,
Adliya vazirligi boshqarma boshlig'i.
O'ZA

O'ZBEKISTON BUTUN OSIYODA BIRINCHI REAKTOR O'RNATGAN DAVLATDIR

Mamlakatimizda elektr energiyaga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib borayotgani hech kimga sir emas. Shu bois, aholi va iste'molchilarning energiyaga bo'lgan ehtiyojini to'laroq qondirish maqsadida davlatimiz zarur choralmi ko'rmoqda. Xususan, yurtimizda "yashil energetika" manbalari – gidro, quyosh, shamol va atom elektr stansiyalarini qurish ishlari shular jumlasidandir.

Dunyo bo'yicha AESlar ishlab chiqarayotgan elektr energiya 20-25 foizni tashkil etadi. Olimlarning ta'kidlashicha, yaqin o'n yillarda atom energiyasi qulay va ekologik jihatdan nisbatan toza bo'lgan energiya manbai bo'lishi mumkin.

O'ZA muxbirining "O'zatom" agentligi Atom energetikasi va yadro texnologiyalari boshqarmasi boshlig'i Qosim TO'XTAXUNOV bilan suhbatida dunyoda AESlar faoliyati va uning elektr energiya ishlab chiqarishdagi o'ri, yaratilayotgan yadro texnologiyalari hamda mamlakatimizda birinchi AES qurilish loyihasi haqida bo'ldi.

– Bugungi kunda ko'plab davlatlarda atom energetikasi yaxshi rivojlangan. Lekin shunga qaramasdan, ayrim davlatlarda AESlar faoliyati to'xtatilayotgan bo'lsa, yana bir qator mamlakatlar esa o'z iqtisodiy rivojini AESlar qurilishi bilan bog'lamoqda.

– Hozirgi kunda bir xil davlatlar AESni rivojlantirishdan voz kechgan, – dedi Q.To'xtaxunov. – Bunday qarab chiqadigan bo'lsak, shunday davlatlar dunyoda ikkita: bu – Italiya bilan Litva. Mutlaqo AESni rivojlantirmaymiz, atom energetikasi bizga kerak emas, degan rasmiy shaklda munosabatini bildirgan. Ko'p bor Germaniya to'g'risida gapirishadi, lekin bu davlat AESdan voz kechmagan. Hozirgi kunda ham bu davlatda AES ishlab turibdi. Bu davlatda ishlayotgan AESlar asosan ikkinchi avlodga mansub. Ular o'tgan asrning 70-80-yillarida qurilgan. AESlar faoliyati qirq yilga mo'ljallangan. Ularning faoliyatini davom ettirish yoki ettirmaslik mumkin. Buning ikki yo'li bo'lib, bir yo'lini renovatsiya deymiz, bu degani hozirgi kunda MAGATening talablari va xavfsizlik bo'yicha, bundan tashqari, ishlayotgan uskunalar mos kelsa, bu avlod stansiyalari umrini yana 20 yilga cho'zish mumkin. Ko'p davlatlar shu yo'lni tanlamoqda.

Yevropada Vengriya, mana hozir Bolgariya imzo chekdi. Finlyandiya ham qo'shildi. Bu davlatlar uchunchi va 3 "+" avlodiga mansub yangi AESlar qurmoqchi. Shvetsiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Belgiya davlatlari renovatsiya ishlari olib borib, o'tgan

asrning 70-80-yillarida barpo etilgan ikkinchi avlodga mansub reaktorlarning yashash davrini cho'zdirdi. Bu degani MAGATening talablari va xavfsizlik talablari bo'yicha modernizatsiya ishlari olib borib, reaktorlari yana qayta ishga tushirdi.

Hozir asosiy AES qurilishlari Osiyo davlatlarida amalga oshirilmoqda. Xitoy sakkizta energoblokni, o'zining konstruksiyasini qurmoqda. Yana to'rttasini "Rosatom" davlat korporatsiyasi qurib beryapti. Bangladesh, Turkiya, Misr davlatlari hozir atom energetikasini rivojlantirib, yangi uchunchi va 3 "+" avlodiga mansub reaktorlarni qurish ishlari olib bormoqda.

Litva yana AES qurmoqchi bo'ldi, lekin hozir imkoniyati yo'q. Ishlab turgan bor stansiyalarini ham to'xtatdi. Bu ularning parlamenti va xalqining tanlovidir. Bu davlatlar elektr manbalarini sotib olmoqda. Ita liyani oladigan bo'lsak, asosiy energiyani Fransiyadan oladi. Chunki Fransiyada 70 foizdan ko'p atom generatsiyasi hisoblanadi. Litva ham Yildan sotib oladi. Balki Belarustan sotib olishga majbur bo'ladi. Belarus davlati 1200 MVtli 3 "+" avlodiga mansub reaktorning birinchi blokini ishga tushirish bo'yicha sinov va ekspluatatsiya ishlari to'liq yakunladi.

– Bugun atom energetikasi "yashil energetika" manbai sifatida qaralayotgan bo'lsa-da, uning ishlab chiqarilish xavfi, asoratlari haqida munosabatlar sira o'zgarmadi. Sizning fikringizcha, kelajakda butunlay xavfsiz AESlar yaratilishi mumkinmi?

– Keling, avvalo, ekologik toza degani nimaligini tushunib olaylik. Bizda "yashil kvadrat" degan tushuncha bor. Bu ishlagan faoliyatida mutlaqo yoqilg'i yoqmasdan CO₂ atmosferaga chiqarmaydigan generatsiyani "yashil kvadrat" deyiladi. Bu suv, gidroenergetika, quyosh, shamol va atom energetikasidir.

Atom energetikasi bo'yicha ko'pincha radiatsiya to'g'risida juda ko'p savollar tug'illadi. Radiatsiya o'zi nima? Bu dunyoda radiatsiya bo'lmagan joy yo'q. Chunki radiatsiya har doim kosmosdan, quyosh nuriidan keladi va yerning tagidan chiqadi. Hatto inson organizmi va yegan mahsulotida ham radiatsiya bor. Me'yor bo'lish kerak. Bizning atom elektr stansiyani oladigan bo'lsak, bizlar ishlaganda chiqadigan radiatsiya MAGATening talabidan oshishi kerak emas. MAGATening talabi tabiiy fondan bir necha barobar pastdir. Shuning uchun ekspluatatsiya paytida chiqqan radiatsiya bizda juda past. Misol uchun, samolyotda uchganingizda 10 barobar radiatsiya olasiz, MRTdan o'tganda radiatsiya olasiz. Telefon, kompyuter ham radiatsiya. Bu ham radiatsiyaning bir turi.

Yana qaytarib o'taman, bizning AESdan chiqadigan radiatsiya foni mana shulardan kamdir.

– Bugungi kunda yaratilayotgan yadro texnologiyalari avvalgilarga nisbatan qanday afzalliklarga ega? Bu borada qaysi davlatlar yetakchilik qilmoqda?

– Mana bu yil birinchi atom elektr stansiyasining ishga tushirilganiga ham 75 yil bo'ldi. U 1956 yil (sobiq

SSSR) Rossiyaning Omsk shahrida tushirilgan bo'lsa, atom energetikasi juda katta bosqichdan o'tdi. O'tgan asrning 70-80-yillarida shunaqa davr bo'lganki, har 17 kunda bitta energoblok ishga tushar edi. Tasavvur qiling, har 17 kunda dunyoda bittadan energoblok ishga tushirilgan.

Hozirgi kunda birinchi navbatda xavfsizlik. Bugungi kunda qurilayotgan AESlarda 40 foiz xarajat xavfsizlik tizimiga sarflanadi. Atom energetikaning bosh etaplarida asosan AQSh, Fransiya, Buyuk Britaniya, Rossiya, Kanada davlatlari qurishar edi.

Hozirgi kunda yaratiladigan reaktorlar bu uchinchi avlod. Bu texnologiyaga Xitoy, Janubiy Koreya va Fransiya ega. 3 "+" texnologiyasiga esa faqat "Rosatom" davlat korporatsiyasi ega.

– Navbatdagi savolim mamlakatimizda boshlangan loyiha bilan bog'liq. O'zbekistonda birinchi AES qurilishi loyihasi bo'yicha ishlar boshlangan. Bu haqida xorijiy va mahalliy ekspertlar o'zlarining fikrlarini bildirgan va ayni damda ham munosabatlar bildirilyapti. Ularning fikricha, mana shu loyiha amalga oshgandan keyin O'zbekiston Markaziy Osiyo bo'yicha atom energetikasini rivojlantirish borasida yetakchilik qiladi. Bu haqida sizning fikringiz qanday?

– Shu fikrga qo'shilmayman. Yadro texnologiyasi bo'yicha O'zbekiston Markaziy Osiyoda emas, balki butun Osiyoda birinchi reaktor o'rnatgan davlatdir. Bizda 1959-yilda birinchi reaktor qo'yilgan. Yadro texnologiyasi bo'yicha O'zbekiston juda ko'p ishlarni olib borgan va bu borada yetakchi davlatlar safiga o'tgan asrning 60-yillarida kirgan. Energetikani oladigan bo'lsak, bu to'g'ri. Markaziy Osiyoda bu birinchi AES emas. Chunki Qozog'istonning sobiq Shevchenko shahrida birinchi AES qurilgan. BN-350 tez neytronli to'rtinchi avlodga mansub, eksperimental reaktori 20 yil ishlagan.

Endi O'zbekistonning birinchi atom elektr stansiyasi haqida gapiradigan bo'lsak, shubhasiz, bizga sinergetik effekt beradi. Sinergetika – shuning orqasida sanoat, ilm-fan rivojlanadi.

– Xalqimiz orasida AES loyihasi bo'yicha turli fikrlar mavjud. Bu haqda kim tomonidan va qanday tushuntirish-targ'ibot ishlari olib borilishi zarur, deb o'ylaysiz?

– Mening fikrimcha, avvalo, har bir kishida energetika sohasi bo'yicha tushuncha bo'lishi kerak. O'tgan yili pandemiyadan oldin oliy ta'lim dargohlariga borib, tushuntirish ishlari olib bordik. Qiziqish juda katta bo'ldi. To'g'ri, bu asosan texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalaridir. Yoshlarimiz hamisha yangilikka intiladi. Energetika – bu tizim. Bu tizimda ishlab chiqarish, generatsiya deymiz, yetkazib berish va iste'molchi bor. Bu tizimni, generatsiyani o'zgartirsak, mana hozir yetkazib berishga juda katta mablag' sarflayapmiz. Bu tizimning uchining elementi – iste'molchi o'zining fikrini – energetika masalalariga qarashini o'zgartirmaguncha, biz katta natijaga ega bo'lolmaymiz.

Energetika xavfsizligining talabi – diversifikatsiya. Bu degani bizda hozirgi kunda gaz 80 foiz energiya resursimiz hisoblanadi. Bitta energiya resursiga qarab qolganmiz. Bu mumkin emas. Hidro, quyosh, shamol bo'lishi kerak. Me'yori. Undan tashqari, AES bo'lishi kerak. Diversifikatsiya mana shu ishlarni olib borishi zarur. Mana shular bo'yicha xalqimizda tushuncha bo'lishi lozim. Shundaygina energiya resurslari – gaz, elektr energiya va qolgan resurslarni faqatgina sanoatga emas, hozir sanoatga ham yetmayapti, aholiga ham yetkazib berishga erishamiz.

– Mazmunli suhbatningiz uchun rahmat.

O'ZA muxbiri
Nasiba ZIYODULLAYEVA
suhbatlashdi.

"MUSOFIR" XAYRIYA MARAFONI ko'ngilli yoshlarni birlashtirdi



O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi "Musofir" xayriya marafonini o'tkazdi. Marafon xorijda o'qiyotgan va ishlayotgan yurtdoshlarimiz hayotiga befarq bo'lmagan barcha yoshlarni faollikka chorladi. Toshkent shahridagi "Ekopark" madaniy ko'ngilochar markazida o'tkazilgan marafonda poytaxtimizdagi OTM talabalar va xayriyaga hissa qo'shishni istagan ko'ngillilar ishtirok etdi.

– Pandemiya davrida xorijda istiqomat qilayotgan qator yoshlarimiz Assotsiatsiyaga moddiy yordam so'rab murojaat qildi. Biz o'ziga to'q bo'lgan yurtdoshlarimizdan "crowdfunding" usuli yordamida pul mablag'lari yig'ib, ehtiyojmand yoshlarga yo'naltirdik, – deydi O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi raisi Rahmatjon Umarov. – Bugungi marafondan asosiy maqsad yoshlarimiz o'rtasida xayriya madaniyatini shakllantirishdan iborat. Xayriyaga kelib tushayotgan pul mablag'lari aylanishi shaffofligini ta'minlash maqsadida www.wayu.uz saytida

"Musofir" xayriya loyihasi uchun maxsus platforma yaratilgan bo'lib, mablag' o'tkazgan odam hisobimizda qancha pul borligi va kimlarga yo'naltirilganini kuzatish imkoniyatiga ega.

Marafonda ishtirokchilar 2 kilometr masofani bosib o'tdi. G'oliblarga homiylar va Assotsiatsiya tomonidan kubok, diplom va esdalik sovg'alar taqdim etildi. Loyiha doirasida turli ko'ngilochar dasturlar, fleshmob, "dance party"lar tashkil etilgan yoshlarga manzur bo'ldi.

Avazbek ARABBOYEV



Ibrohim RASULOV,
film rejissyori:

O'ZBEK KINOSIDA YANGI DAVR RUHI

— Bugungi kunda o'zbek kino-sida katta o'zgarishlar bo'lyapti. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan sohada keskin burilish qilindi, talab kuchaydi, shunga yarasha imkoniyat berildi.

Hamid Olimjon va Zulfiyaxonim hayoti haqidagi tarixiy, badiiy filmni suratga olish menga ishonib topshirilganidan xursand bo'ldim.

Bugungacha Hamid Olimjon va Zulfiyaxonimni faqat shoir-shoira deb bilganmiz. Hamid Olimjonning she'rlarini sevib yodlaganmiz. She'rlarini nonadalar kuyga solgan. Lekin ularning hayotida she'riyatdan tashqari ham buyuk kechmish borligini boshqalarga ko'rsatishimiz kerak.

Ular buyuk tarixiy shaxslar. Ular haqida to'qima hikoya qilib bo'lmaydi. Chunki Zulfiyaxonim va Hamid Olimjon yashagan va ijod qilgan davr kishilari, ularga hamnafas, do'st, hamkor odamlar bugun ham oramizda umrguzaronlik qilyapti.

Zulfiyaxonim onalari haqida "Onam Fuzulyini, Bedilni yoddan bilardilar. Xirgoyi qilib, bizga aytganlarida eshitib uxlab qolardik. Menda she'riyatga bo'lgan muhabbat onamdan o'tgan", deb xotirlaydi.

Buyuk siymolar bolalikdan kitobga oshno bo'lgan. Hamid Olimjonni ham, Zulfiyani ham adabiyotga bobolari, onalari yetaklagan, qiziqitira olgan. Bu ijodkorlar ota-onasi, bobo-momosining adabiyotga muhabbatidan quvvat olgandir. Shunday ekan, yoshlarni adabiyot, multolaaga qiziqitirishda, eng avvalo, ota-onaning o'zi ibrat, targ'ibotchi bo'lishi zarur.

ZULFIYAXONIMNI O'Z ONAMDEK YAXSHI KO'RIB QOLDIM!

— Film ssenariysi iste'dodli adiba Zulfiya Qurolboy qizi qalamiga mansub. Badiiy kengash dastlabki muhokamada ssenariy bo'yicha tavsiylari, ko'rsatmalari, ssenariy-dagi kamchiliklar, o'ziga xos jihatlar haqida maslahat berdi. Shundan so'ng adiblar hayoti va ijodi yanada chuqurroq o'rganilib, ular hayotini kengroq yoritish uchun Mikoyil Sulaymonov ham ssenariychi sifatida jalb qilindi.

Hayotiy voqealarni filmga kiritmasangiz bo'lmaydi. Misol uchun, Zulfiyaxonimning 33 yoshli akasi Xorazm viloyati partiyasining rahbari bo'lgan. Akmal Ikromovga qarshi ko'rsatma bermagani, haqiqatdan yuz o'g'irmagani uchun tuihatga uchrab, "xalq dushmani" sifatida otuvga hukm qilingan. Bundan onalari ko'p anduh chekkanlar. Keyinchalik Zulfiyaxonim elga katta shoir sifatida tanilgach, onasining undashi bilan akasining qabri, u kishining

«Muhabbat bahori»

Hamid Olimjon va Zulfiyaxonim muhabbatining jonli talqini

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

"BIR JOYDAN QUYLADIGAN IKKI CHASHMA"

qamoqqa olinish sabablari va boshqa tafsilotlarga doir arxiv hujjatlarni qidirgan sahnalar bor. Ssenariyning ilk variantida bu kabi tasvirlar yo'q edi. Bu sahnalar voqealar to'liq va izchil bo'lishini ta'minlaydi.

Suratga olish ishlari asosan Qo'qon shahrida bo'ldi. Chunki film voqealari 1920-1944-yillarga to'g'ri keladi. Shu davrdagi uy-muzeylar Qo'qon shahrida hali ham saqlanib qolgan. Dekoratsiyalar qurishdan tashqari, mavjud binolardan unumli foydalanishga urindik. Shaharda ma'rifatparvar Hamza Hakimzodaning uy muzeyi ham bor. 1927-yil-largacha adib o'sha yerdə yashagan. Bino davr muhitini aks ettiradi.

Qo'qon, Toshkent viloyati, undan tashqari, Jizzaxning Zomin tumani hamda Belorusiyada ham suratga olish ishlari olib borildi. Jizzaxda eski davrlarni eslatadigan 700 yillik bobo yong'oq bor. O'sha yerdə

— Hamid Olimjon va Zulfiyaxonimning ijodini bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Prezidentimiz har ikki ijodkorga "Bir joydan quyiladigan ikki chashma", deb chiroyli ta'rif berdi. Ularning hayotini bahorsiz tasavvur qilish mushkul. Shuning uchun filmining nomi ham "Muhabbat bahori". Ikki darg'aning she'riyatidan ham bahor nafasi kelib turadi. Hamid Olimjon aytadi:

*Har yurakning bir bahori bor,
Har bir qalbag'a ishq bo'lar mehmon.*

*Har yurakda gullar muhabbat,
Bo'ston etar uni begumon.*

Zulfiyaxonim ham shunday. Bahor keldi deguncha uning fasllar kechinchagi haqidagi ash'orlari yodga tushaveradi.

Zominda filmining final sahnasini suratga oldik. Xalqimiz yoddan biladi-

AKTYORLARDAN MAMNUNMAN!

— Zulfiyaxonim va Hamid Olimjon roliga tanlovda juda ko'p yosh yigit-qizlar qatnashdi. Faqat tashqi qiyofasi emas, ruhiyati ham qahramonlarimizga mos kelishi kerak edi. Shu sabab kasting jarayoni biroz cho'zildi. Uzoq izlanishlardan so'ng Hamid Olimjon obraziga O'zbek Milliy akademik drama teatri aktyori — Hamza Hasanov, Zulfiyaxonim obraziga yosh san'atkor, shu teat aktrisasi — Shahnoza Hojmurodovani tanladik.

Yuragimda bir ishonch bor: film uchun aktyorlarni tanlashda adashmadim. Zulfiyaxonimning xonadonida kasting o'tkazayotgan paytimda Zulfiyaxonimning kelinlari Roviya opa bosh qahramon roliga da'vogarlar orasidan Shahnoza Hojmurodovani ko'rsatib, "Mana bu qizdan ayamning istarasi ko'rinib turibdi", deb aytdi.

Hamza Hasanov va Shahnoza Hojmurodova qahramonlarning hayoti bilan yashayotgani meni quvontirdi. Ikki buyuk ijodkorning kitoblarini yig'lab o'qigan, Shahnoza Hojmurodova Zulfiyaxonimning she'rlarini yoddan aytayotganidan ular mas'uliyatni his qilganini sezdim.

Ular nima xohlayotganini yaxshi anglashdi. Ba'zida o'zlari qoniqmag'an sahnalarni qaytadan suratga olishimni talab qilishdi.

Hozir suratga olish ishlari 95 foiz yakuniga yetdi, desam bo'ladi. Eng katta ikkita sahnamiz bo'lgan Hamid Olimjonning Sochi shahrida yozuvchilar yig'ilishida ishtirok etishi va ikkinchisi — frontda jangchilar bilan ko'rishishi ham Belarus Respublikasida muvaffaqiyatli suratga olib kelindi. Har ikkisi ham jiddiy tayyorgarlikni talab etdi. Chunki frontdagi holatni gavdalantirishimiz o'ta murakkab jarayon edi. Turli millatga mansub askarlarga liboslar, harbiy texnikalar zarur bo'ldi. Bu ko'p tayyorgarlik talab etdi.

SURATGA OLIH JARAYONIDAGI QIYINCHILIKLAR

— Albatta, tarixiy filmlarda obyekt tanlash, sahna manzaralarini yaratish og'ir masala.

Tarixiy obidalarimiz obod bo'lyapti, ammo aksariyatini ko'zdan kechirganimda g'altati jihatni payqadim. Atrof chiroyli bo'lsin deb bizning iqlimga, tarixiy koloritimizga mos bo'lmagan archalar ekyapmiz, lekin tarixiy qadamjolarning o'tmishiga putur yetkazypmiz. Xorijliklarga ekzotik daraxtlardan ko'ra o'zimizning egri bo'lib o'sgan tut daraxtimiz, mevasi bo'lmasa ham yong'og'imiz qiziq, menimcha. Ular o'sha davr ruhini beradi. Ammo ko'pgina o'tmish daraxtlarini kesib, o'rimga archa ekishganiga tushunmadim. U davrda birov archa ekanmi?

Masalan, Hamza Hakimzodaning uyida u kishining otalari o'z qo'llari bilan ekan tut daraxti hamon o'sib turibdi. Undan foydalansangiz, filmingizni boyitadi. Ammo tarixiy binolarimizda zamonaviylik elementlari uchrasa, uni qanday qilib suratga olishni bilmay bosh qotirasiz.



Shahnoza HOJIMURODOVA,
bosh rol ijrochisi:

BOSHIMGA BAXT QUSHI QO'NDI

— Aktrisa sifatida mahoratli us-toz, rejissyor Ibrohim Rasulov bilan ilk bor hamkorlik qilyapman. 200 nafardan ziyod nomzodlar orasidan aynan menga Zulfiyaxonim siymosini gavdalantirish topshiriladi, deb sira o'ylamagandim. To'g'risi, ruhim osmonlarda parvoz qilyapti. Bu omad. Chunki kastingga eng so'nggi bo'lib men borgandim. Ungacha turli viloyatlardan iste'dodli aktrisalarni sinovdan o'tkazishgan ekan. Teatrdə birga ishlaydigan, taqdir taqozosi bilan filmda Hamid Olimjon rolini ijro etadigan Hamza Hasanov "Shahnoza, kastingga nega bormadingiz? Tezda boring", deb qoldi. Ikkilandim... Ammo ulkan baxt qushi yelkama qo'ndi.

Albatta, bu katta mas'uliyat. Zulfiyaxonimning ichki dunyosini o'rganish, qahramon bilan yashashga harakat qildim. Shoiramizning butun hayotini o'rganish menga qiyinchilik emas, aksincha, zavq berdi. O'zimni Zulfiyaxonimdek tuta boshladim. Atrofdagilar ham "Zulfiyaxonim" deb chaqiradigan bo'lishdi. Vazifamni qanchalik uddalaganimga tomoshabinlar baho beradi.

Ssenariyni o'qiboq, qattiq ta'sirlandim. Chunki Zulfiyaxonimni faqat shoirsa sifatida bilardim. Lekin boshidan shuncha qiyinchiliklar o'tganini his qilmagandim. Filmga eng og'ir sahnalardan biri shuki, Hamid Olimjon avtohalokatga uchragan paytda shoirsa teatrga boramiz, deb yasan-tusan qilib, yorini kutib turgan bo'ladi. "Hamid Olimjon avtohalokatga uchradi", degan xabar kelgan sahnalarni suratga olish og'ir bo'ldi.

Zulfiyaxonim bilan Hamid Olimjon sevgisi ilohiy sevgi hisoblanadi. Shodlik va baxt kuychisi Hamid Olimjon hamda sadoqat, sevgi ramzi Zulfiyaxonimning ruhlar doim shod bo'lsin.

Bahodir JOVLIYEV yozib oldi.



ham sahnalar olindi. Boboyong'oq Hamid Olimjonning bolaligini xotirlovchi noyob detal. Chunki Hamid Olimjon uch yoshga o'tishida otasi vafot etadi. Shunda u kishining bobosi Azim bobo bolaligini eslab, gapirgan joylari film kadrilariga ko'chadi.

Hamid Olimjon bilan Zulfiyaxonim haqidagi kinoni ko'rib, yoshlarimiz ular haqida ko'proq bilimga ega bo'lishini xohlardim.

Rahmatli onamni eslasam, ularning libosi, soch turmaklari Zulfiyaxonimdan andoza qilinganini tushundim. Ardoqli shoiramiz ayollarimizning imijini ham yaratib bergan ekan. Men Zulfiyaxonimni o'z onamdek yaxshi ko'rib qoldim. U kishining she'rlarini maktab davrimizda yodlar edim. Lekin tushunib-tushunmay aytar ekanman. Filmi suratga olish mubaynida har ikki buyuk ijodkorning ruhiyati tanimga ko'chdi. Mana endi har bitta so'z, har bitta nafasida olamjahon maqsad, ma'nolarni angliayapman. Zulfiyaxonimning she'rlarini yig'lab o'qiyman.

gan "Eng gullagan yoshlik chog'imda" she'ri Zulfiya uchun yozilgan:

*Eng gullagan yoshlik chog'imda,
Sen ochilding ko'ngil bog'imda.
Shunda ko'rdi ko'zim bahorni,
Shunda qalbm tanidi yomi...*

Qanday go'zal, quyma satrlar. Taassufki, Hamid Olimjon 35 yoshida Do'rmon yo'lidə avtohalokatga uchrab, vafot etadi. Zulfiyaxonim 29 yoshida olti yoshli qizi hamda uch yashar o'g'li bilan beva qoladi. Biz "Zulfiyaxonim — sadoqat, vafu ramzi", deymiz. Shoirsa 51 yildan ziyod yolg'iz yashadi. Butun umr "Hamid Olimjonning xotirasi men bilan. Endi uning uchun ham men yozaman", deydi.

*Sog'inganda izlab bir nishon,
Qabring tomon olar edim yo'li.
Keltirarding menga bir zamon,
Endi harchog' men*

eltaman gul...

Shuning uchun ham Zulfiyaxonimni xalqimiz suyadi, yaxshi ko'radi.

ТОЧКА ЗРЕНИЯ



Современные юноши и девушки хотят знать обо всем, что происходит в стране. Особенно интересно, каких изменений ждать в год, адресатами которого они стали. Ведь поколению молодых, энергичных, готовых претворять самые смелые идеи в нашей республике открыты все пути.

Главной целью было и остается формирование личности – стойкой, инициативной, гибкой. Недаром на государственном уровне постоянно поднимается вопрос о молодежи нового дня, условиях раскрытия ее потенциала.

Перечитываю постановление. Учтено все. Покрытие до 75 процентов расходов на профессиональную подготовку и обучение предпринимательству, частичное покрытие аренды нежилого помещения, выделение субсидий до 40-кратного размера БРВ для приобретения оборудования, если молодые люди решили заняться бизнесом.

Снова память возвращает на два года назад. Волнующий момент: вижу

Основы счастливой судьбы

Помню тот подъем, который вызвал у моих сверстников Указ «О Государственной программе по реализации Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017–2021 годах в Год поддержки молодежи и укрепления здоровья населения». Обсуждали нововведения в системе высшего образования; хотя мы только второкурсники, представляли, где будем проходить зарубежные стажировки и с каким багажом вернемся на родину. Мечтали и о научно-исследовательской деятельности.

Гармоничное развитие подрастающего поколения – одна из первоочередных задач государства, и заботится оно не только о продуктивности работы и учебы, но и о насыщенном полезном досуге. Главное – помогает сделать первые самые важные самостоятельные шаги, будь то поступление в вуз или выстраивание собственного бизнеса.

Постановление Кабинета Министров «О дополнительных мерах по социальной поддержке молодежи», принятое в марте, открывает перед многими юношами и девушками такие возможности, которые им не смогла бы предоставить семья.

Вспоминаю замкнутого мальчишкурвенника. Не понимала, почему он держался особняком, игнорировал коллективные культурные мероприятия. Ему было легче надерзить учителя и высказать одноклассникам, что общение с ними ему ни к чему, нежели признаться: семья переживает нелегкое время, когда каждая копейка на счету. Узнав о трудном материальном положении, сразу простила его грубые выходы и резкий тон. Посоветовалась с ребятами, как помочь товарищу незаметно и необидно. Сама разработала «операцию» по приобретению для него книг в аренду, чтобы парень ни о чем не догадался.

К чему это я? «Молодежная», «железная» тетради составляются путем глубокого анализа, они призваны выявить тех, кто нуждается в помощи. Ведь зачастую добрый старт – основа счастливой судьбы. Честно говоря, не знаю, как сложилась жизнь этого мальчишки (приходилось не раз менять классы), однако представляю: его обучают предпринимательству и помогают с арендой помещения. В результате он становится успешным бизнесменом.

Возможностей много, нужно только грамотно ими воспользоваться.

себя в списках поступивших. Пусть это контракт, но какая радость! Только не все абитуриенты эту радость разделяли. Кто-то отходил от информационных стендов со слезами: «Все равно учиться не буду! Нет у нашей семьи таких денег». И вот заветный пункт постановления о материальной помощи детям семей, включенных в «Темир дафтари».

Отдельная графа – возмещение расходов, связанных с лечением детей, семьи которых внесены в «железную» тетрадь, в стране и за рубежом в размере 50-кратного размера БРВ. Скольким пациентам будет своевременно оказана медицинская помощь!

Испытывающие материальные трудности молодые люди, включенные в «Ешлар дафтари», могут получить единовременную помощь в размере до 4 БРВ. А есть еще субсидии до 8-кратного размера БРВ на покупку семян и саженцев...

Пусть помощь придет вовремя и будет на благо как отдельной личности, так и всей страны!

